**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**FARG‘ONA JAMOT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Pediatriya fakultet dekani**
**__________ PhD. M.M. Zokirov**
**“____”__________2023 y.**

# PEDIATRIYA FAKULTETI
# KOMPETENSIYA TALABLARI

**Bilim sohasi:** 900000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot

**Ta’lim sohasi:** 910000 - Sog‘liqni saqlash

**Ta’lim yo‘nalishi:** 60910100 – Stomatologiya

60910300 – Pediatriya ishi

60910700 (60910800) – Farmatsiya (tulari bo‘yicha)

**Farg‘ona – 2023 yil**

## *60910800 (60910700) - FARMATSIYA (TURLARI BO‘YICHA)* TA’LIM YO‘NALISHI BO‘YICHA BAKALAVRLARNING

## KASBIY KOMPETENSIYALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

### UMUMIY KOMPETENSIYALAR (UK):

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammo va jarayonlarni tahlil qilish, turli kasbiy va ijtimoiy faoliyatida gumanitar, tabiiy-ilmiy, tibbiy-biologik va farmatsevtik fanlar usullarini amaliyotda qo‘llash qobiliyati va tayyorligi (UK-1);
- dunyoqarashga oid, ijtimoiy va shaxsga qaratilgan falsafaga oid muammolarni, asosiy falsafa toifalarini tahlil qilish, o‘zini takomillashtirish qobiliyati va tayyorligi (UK-2);
- muhim siyosiy voqealar va tendensiyalarni tahlil qilish, siyosiy hayotda ma’suliyat bilan ishtirok etish, asosiy tushunchalar, jahon tarixiy jarayonining qonuniyatlarini bilish. Milliy mustaqillik g‘oyalarini tushunish va targ‘ibot qilish, o'z mamlakatiga vatanparvarlik hissini uyg‘otish; tarixiy obidalar va an’analarga hurmat va ehtirom qilish, davlat siyosatini baholash qobiliyati va tayyorligi (UK-3);
- mamlakatning eng yangi tarixini va tarixiy-tibbiy atamalarni bilish qobiliyati va tayyorligi (UK-4);
- o‘z-o‘zini rivojlantirishga, o‘zini anglashga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga, foydalanishga tayyorlik, ijodkorlikka egaligi (UK-5);
- jamoada ishlashga tayyorlik, ijtimoiy bag‘rikenglik etnik, konfessional va madaniy farqlarga tayyorligi (UK-6);
- axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot, bibliografik resurslar, tibbiy-biologik va farmatsevtik terminologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatning standart vazifalarini hal qilishga tayyorlik (UK-7);
- iqtisodiyotning rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni umumlashtiradigan bozor xo‘jalik yuritish mexanizmlarini bilish qobiliyati va tayyorligi (UK-8);
- mantiqiy va asoslangan tahlil qilish, ommada nutq so‘zlash. muloqot va suhbat olib borish, kasbiy mazmundagi matnlarni tahrirlash, hamkorlik qilish va nizolarni yechish, bag‘rikenglik qilish qobiliyati va tayyorligi (UK-9);
- hayotda so‘zlash darajasida chet el tillaridan birini bilish, davlat tilida yozma va og‘zaki kommunikatsiya qilish qobiliyati va tayyorligi (UK-10);
- o‘z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma’naviy va huquqiy me’yorlarni hisobga olgan holda amalga oshirish, shifokorlar etikasi, maxfiy axborot bilan ishlash bo‘yicha qonun va huquqiy-me’yoriy hujjatlarga amal qilish, shifokorlar sirini saqlash qobiliyati va tayyorligi (UK- H);
- favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish texnikasi va himoya usullaridan foydalanishga tayyorlik (UK-12);
- asosiy fizik, kimyoviy, matematik va boshqalardan foydalanishga tayyorlik kasbiy muammolarni hal qilishda boshqa tabiiy fanlar konsepsiyalari va usullarini bilish (UK-13);

- dorilarni va boshqalarni tibbiy ishlatishga tayyorligi kasbiy muammolarni hal qilishda moddalar va ularning kombinatsiyasidan foydalana olish (UK-14).

**KASBIY KOMPETENSIYALAR (KK):**

- Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalarda farmatsevt-texnolog, farmatsevt-analitik va farmatsevt-nazoratchi ishini tashkillashtirish (KK-1);
- Farmatsevtik tashkilotning mehnat jamoasi ishini tashkil etish va uni boshqarish (KK- 2);
- Farmatsevtik tashkilotining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarish (KK-3);
- Farmatsevtik tashkilotining moddiy va resurs bilan ta’minlashni tashkil etish (KK-4);
- farmatsevtik savdo korxonalari va omborxonalarida dori vositalarini qabul qilish, saqlash, qadoqlash va tarqatish (KK-5);
- Aholiga farmatsevtik yordamni tashkillashtirish (KK-6);
- Aholi, tibbiyot va farmatsevtik xodimlariga axborot va maslahat yordamini tashkillashtirish (KK-7);
- Aholi va tibbiyot xodimlariga dorilarning farmakologik xususiyatlari bo‘yicha ma’lumot berish (KK-8);
- aholi orasida tarqalgan kasalliklarni va uni davolash uchun kerak bo‘ladigan dorilar guruhiga ehtiyojni o‘rganish va ta’minlashga yo‘naltirilgan vositalar, usullar va uslublarni qo‘llash (KK-9).
- Farmatsevtik tashkilotining faoliyatidagi joriy natijalar sifatini tashkil etish va boshqarish (KK-10);
- Dorixona muassasalari sharoitida dori preparatlarini tayyorlash (KK-11);
- Shifoxona dorixonalarida dori vositalari tayyorlash, sifatini baholash, saqlash, qadoqlash va bemorlarga berish (KK-12);
- Sud-tibbiy ekspertizasi (sud-kimyo, kimyo-toksikologik) faoliyatini tashkil etish (KK-13);
- Sud-tibbiy ekpertizasida ashyoviy dalillar va biologik ob’ektlarni sud- kimyo va kimyo- toksikologik tahlillarini o‘tkazish (KK-14);
- Sud-kimyo va kimyo-toksikologik tekshiruv sifatini nazorat qilishni tashkil etish (KK-15);
- Dori vositalarini tahlil qilish (KK-16);
- Dori vositalarini sifatini baholash (KK-17);
- Dori vositalari sifatini ta’minlash (KK-18);
- Dori vositalarining sifatini nazorat qilish (KK-19);
- Tahlil usullarini validatsiyalash (KK-20);
- Dori vositalarini sertifikatlashtirish (KK-21);
- Dori vositalarini standartlashtirish (KK-22);
- Yangi dori vositalarining klinika oldi tekshiruvlari, klinik sinovlarini o‘tkazish (KK-23).

## *60910100 – STOMATOLOGIYA ISHI* TA’LIM YO‘NALISHI KASBIY KOMPETENSIYALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

**Kasbiy kompetensiyalar ro‘yxati quyidagi kompetensiya toifalari asosida shakllantiriladi:**
Tibbiy bilimlar;
Amaliy ko‘nikmalar va klinik fikrlash;
Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya;
Etika va empatiya;
Umumiy stomatolog shifokorning shaxsiy rivojlanishi;
Uzluksiz kasbiy rivojlanish;
Jamoat salomatligini saqlash.

| **Kompetensiya toifalari** | **Kod** | **Kompetensiya** |
|---|---|---|
| **Tibbiy bilimlar (TB)**<br><br>Tibbiy bilimlarni egallash | TB.1 | Odam organizmining tuzilishi va funksiyalari, yuz-jag‘ sohasini normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (hamma yosh toifalari) |
| | TB.2 | Kasalliklarning qiyosiy tashxisini bilish |
| | TB.3 | Organizm struktur-funksional o‘zgarishlari asosida kasalliklarning xavf omillari, salomatlik determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish. |
| | TB.4 | Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish |
| | TB.5 | Dalillarga asoslangan tibbiyot doirasida davolash tamoyillarini bilish |
| | TB.6 | Tanlangan terapiyaning maqsadli asoslarini bilish |
| | TB.7 | Klinik protokollar va tavsiyalar asosida bemorlarga yordam ko‘rsatish qoidalarini bilish |
| | TB.8 | Stomatologik kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish |
| | TB.9 | Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sogTom ovqatlanish, jismoniy faollik, chekish va semizlik bilan kurashish va b.) va aholiga sogTom hayot tarzi haqida maTumot berishni bilish |
| | TB.10 | Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o‘zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar) |

| | | |
|---|---|---|
| **Amaliy ko'nikmalar va klinik fikrlash (AK)**<br><br>Bemorlarni olib borishda amaliy va diagnostik ko'nikmalarni namoyon qilish | AK.1 | Bemorlarning shikoyatlari va anamnezini yigTsh |
| | AK.2 | Bemorlarning obyektiv ko'rigini oTkazish, aniqlangan o'zgarishlarni tahlil qilish (hamma yosh toifalari) |
| | AK.3 | Kasalliklarning qiyosiy tashxisini oTkazish |
| | AK.4 | Diagnostik (laborator-instrumental) tekshiruv usullarini tavsiya qilish va natijalarini tahlil qilish |
| | AK.5 | Rasmiy qabul qilingan kasalliklarni kodlash tizimlari talablariga muvofiq dastlabki va klinik tashxisni shakllantirish |
| | AK.6 | Bemorni olib borish va davolash rejasini tuzish |
| | AK.7 | Stomatologik kasalliklarga tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya qilishda "dalillarga asoslangan tibbiyot"ning asosiy tamoyillarini qoTlash |
| | AK.8 | Bemorlarni statsionar davoga shifoxonaga yotqizishdan oldingi bosqichda birlamchi tibbiy yordam koTsatish uchun muolajalarni amalga oshirish |
| | AK.9 | Oilaviy poliklinikada keng tarqalgan stomatologik kasalliklarni oldini olish usullarini qoTlash |
| | AK.10 | Bemorga uning salomatligi va kasallik oqibati haqida maTumot berish |
| | AK.11 | O'zRSSV buyruqlari asosida tibbiy hujjatlarni yuritish |
| | AK.12 | Elektron sogTiqni saqlash tizimida ishlash va teletibbiyot xizmatlarini qoTlash |
| | AK.13 | Kasalliklarni skriningini va dispanserizatsiyasini oTkazish, shuningdek reabilitatsiya usullarini tavsiya qilish |
| | ShM.1 | Profilaktika, diagnostika va davolash maqsadlariga erishish uchun bemorga yo'naltirilgan samarali |
| **Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (ShM)**<br><br>Bemorlar, oila, hamkasblar va jamoa a'zolari bilan samarali muloqot | | muloqot va shaxslararo muloqot ko'nikmalaridan foydalanish va namoyish etish |
| | ShM.2 | Etika me'yorlariga rioya qilgan holda bemorlar va ularning yaqinlariga qo'yilgan tashxis va davolash rejasini aniq tushuntirish |
| | ShM.3 | Bemorlar va ularning oilalariga maTumot berish, maslahat berish va o'rgatish |

| | | |
|---|---|---|
| | ShM.4 | Jamoada, hamkasblar bilan, boshqa yo‘nalishdagi mutaxassislar bilan muloqot qilganda ShAM ko‘nikmalarini qoTlash |
| | ShM.5 | Bemorlami davolashda ishni optimallashtirish va qaror qabul qilish uchun raqamli teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish |
| **Etika va empatiya (EE)**<br><br>Bemorlar va aholi bilan o‘zaro munosabatlarning axloqiy tamoyillariga, empatiyaga yo‘naltirilgan aholiga xizmat ko‘rsatish amaliyoti | EE.1 | Jinsi, yoshi, millati, madaniyati, dini, nogironligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqalardan qat’i nazar, teng, xolis munosabatni va hurmatni namoyish etish |
| | EE.2 | Insonparvarlik, empatiya, hamdardlik, sezgirlik va bemorlar va ulaming qonuniy vakillariga nisbatan halollik ko‘rsatish |
| | EE.3 | Mustaqillik, maxfiylik, adolat, tenglik va xabardor qilingan rozilikka oid axloqiy tamoyillarga sodiqlikni namoyish qilish |
| | EE.4 | Bemoming shaxsiy manfaatlaridan ustun boTgan ehtiyojlari va ehtiyojlari uchun mas’uliyat ko‘rsatish. |
| **Shaxsiy rivojlanish**<br>**(ShR)**<br>Tibbiy amaliyot uchun muhim boTgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur boTgan ko‘nikmalarni namoyon qilish | ShR.1 | Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o‘zining funksional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish |
| | ShR.2 | Qarorlami qabul qilishda hamkasblarda ishonch xissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish |
| | ShR.3 | Odob-axloq me’yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o‘z imiji ustida ishlash nizoli holatlami boshqara olish |
| **Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR)**<br><br>Uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga | UKR.1 | Shaxsiy kompetentlik doirasida o‘z bilimi, klinik ko‘nikmalarini yangilab borish |
| | UKR.2 | Shaxsiy ehtiyojga ko‘ra malakasini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish uchun maqsad va strategiyalami ishlab chiqish |

| | | |
|---|---|---|
| tarafdorlik va qobiliyatni namoyon etish | UKR.3 | O‘z bilimi va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish |
| | UKR.4 | Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun xalqaro ilmiy, dalillarga asoslangan bazani, ilmiy tadqiqot natijalarini topish, baholash va qo‘llash |
| | UKR.5 | Axborot resurslarida ishlash, yangi bilimlarni tahlil qilish va kasalliklami tashxislash, davolash va oldini olish protokollarini o‘z amaliyotiga joriy etish. Dalillarga asoslangan texnologiyalar yoki xizmatlarni tatbiq qilish |
| **Jamoat salomatligi (JS)**<br><br>Bemorlar va aholiga optimal xizmatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi va sog‘liqni saqlashni tashkil etish to‘g‘risidagi bilimlarni namoyish etish | JS.1 | Sog‘liqqa ta’sir qiluvchi omillarni, shu jumladan tarkibiy va ijtimoiy determinantlarni, aholi o‘rtasida kasalliklar, asoratlar va nogironlikning oldini olishni aniqlash va tegishli vazirlik va idoralarni xabardor qilish |
| | JS.2 | Sog‘liq muammolarini, xavf omillarini, davolash strategiyasini va profilaktika choralarini aniqlash uchun epidemiologiya va biotibbiyot statistikasi tamoyillarini bilish. Kasalliklar haqida ma’lumot berish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish |
| | JS.3. | Sog‘liqni saqlash tizimida bemorlarni parvarish qilishni muvofiqlashtirish uchun professional jamoada ishlash |
| | JS.4 | Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli va jamoaviy yondashuvdan foydalangan holda klinik amaliyotni doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirok etish |
| | JS.5 | Bemorlarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik choralarini ko‘rish |
| | JS.6 | Aholiga (bemorlarga) parvarish va xizmat ko‘rsatishda moliyaviy va resurs xarajatlarini hisobga olish hamda xavf va foyda nisbatini tahlil qilish |
| | JS.7 | Profilaktik tadbirlarni integratsiya qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish |
| | JS.8 | Sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimlari (shu jumladan, Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi, kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi) bilan ishlashni bilish |

## *60910300 – PEDIATRIYA ISHI* TA’LIM YO‘NALISHI KASBIY KOMPETENSIYALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

### Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

**Kasbiy kompetensiyalar ro‘yxati quyidagi kompetensiya toifalari asosida shakllantiriladi:**

Tibbiy bilimlar;
Amaliy ko‘nikmalar va klinik fikrlash;
Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya;
Etika va empatiya;
Umumiy amaliyot pediatrning shaxsiy rivojlanishi;
Uzluksiz kasbiy rivojlanish;
Jamoat salomatligini saqlash.

| Kompetensiya toifalari | Kod | Kompetensiya |
|---|---|---|
| **Tibbiy bilimlar (TB)**<br><br>Tibbiy bilimlami egallash | TB.1 | Bola organizmining tuzilishi va funksiyalari, normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (hamma yosh toifalari) |
| | TB.2 | Bola tarbiyasining barcha muhim jihatlari va farovonligini tushunish, universal progresiv patronaj modeliga (UPM) muvofiq |
| | TB.3 | Kasalliklaming qiyosiy tashxisini bilish |
| | TB.4 | Organizm struktur-funktsional o‘zgarishlari asosida kasalliklaming xavf omillari, salomatlik determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish |
| | TB.5 | Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish |
| | TB.6 | Dalillarga asoslangan tibbiyot doirasida davolash tamoyillarini bilish |
| | TB.7 | Tanlangan terapiyaning maqsadli asoslarini bilish |
| | TB.8 | Klinik protokollar va tavsiyalar asosida bemorlarga yordam koTsatish qoidalarini bilish |
| | TB.9 | Kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish |
| | TB.10 | Eng ko‘p tarqalgan kasalliklarning profilaktikasi bo‘yicha bilimlami birlamchi SS birlamchi bo‘ginida namoyish etish |
| | TB.11 | Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sogTom ovqatlanish, jismoniy faollik, chekish va semizlik bilan kurashishish va b.) va aholiga sogTom hayot tarzi haqida maTumot berishni bilish |
| | TB.12 | Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o‘zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar) |
| **Amaliy ko‘nikmalar va klinik fikrlash (AK)** | AK.1 | Bemorlaming shikoyatlari va anamnezini yigTsh |
| | AK.2 | Bemorlaming obyektiv ko‘rigini oTkazish, aniqlangan o‘zgarishlami tahlil qilish (hamma yosh toifalari) |

| | | |
|---|---|---|
| Bemorlarni olib borishda amaliy va diagnostik ko‘nikmalarni namoyon qi- lish | AK.3 | Ayol va bolaga belgilangan muddatda homiylikni (patronaj) tashkil etish, onalarga va bolalarga kasalliklaming oldini olish bo‘yicha homiylik yordamini tashkil etish (UPM) |
| | AK.4 | Kasalliklaming qiyosiy tashxisini oTkazish |
| | AK.5 | Diagnostik (laborator-instrumental) tekshimv usullarini tavsiya qilish va natijalarini tahlil qilish |
| | AK.6 | Rasmiy qabul qilingan kasalliklami kodlash tizimlari talablariga muvofiq dastlabki va klinik tashxisni shakllantirish |
| | AK.7 | Bemomi olib borish va davolash rejasini tuzish |
| | AK.8 | Kasalliklarga tashxis qo‘yish, davolash va reabilitatsiya qilishda “dalillarga asoslangan tibbiyot”ning asosiy tamoyillarini qoTlash |
| | AK.9 | Bemorlami statsionar davoga shifoxonaga yotqizishdan oldingi bosqichda birlamchi tibbiy yordam koTsatish uchun muolajalami amalga oshirish |
| | AK.10 | Oilaviy poliklinikada keng tarqalgan kasalliklami oldini olish usullarini qoTlash |
| | AK.11 | Bemorga uning salomatligi va kasallik oqibati haqida maTumot berish |
| | AK.12 | O‘zRSSV buyruqlari asosida tibbiy hujjatlami yuritish |
| | AK.13 | Elektron sogTiqni saqlash tizimida ishlash va teletibbiyot xizmatlarini qoTlash |
| | AK.14 | Kasalliklami skriningini va dispanserizatsiyasini oTkazish, shuningdek reabilitatsiya usullarini tavsiya qilish |
| **Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (ShM)** | ShM.1 | Profilaktika, diagnostika va davolash maqsadlariga erishish uchun bemorga yo‘naltirilgan samarali muloqot va shaxslararo muloqot ko‘nikmalaridan foydalanishni va namoyish etish. |

| | | |
|---|---|---|
| Bemorlar, oila, hamkasblar va jamoa a’zolari bilan sama- rali muloqot | ShM.2 | Etika me’yorlariga rioya qilgan holda bemorlar va ularning yaqinlariga qo‘yilgan tashxis va davolash rejasini aniq tushuntirish |
| | ShM.3 | Bemorlar va ularning oilalariga maTumot berish, maslahat berish va o‘rgatish |
| | ShM.4 | Jamoada, hamkasblar bilan, boshqa yo‘nalishdagi mu- taxassislar bilan muloqot qilganda ShAM ko‘nikma- larini qoTlash |
| | ShM.5 | Bemorlami davolashda ishni optimallashtirish va qaror qabul qilish uchun raqamli teletibbiyot texnollogiyalari- dan foydalanish |
| **Etika va empatiya (EE)**<br><br>Bemorlar va aholi bilan o‘zaro munosabatlarning axloqiy tamoyillariga, empatiyaga yo‘naltirilgan aholiga xizmat | EE.1 | Jinsi, yoshi, millati, madaniyati, dini, nogironligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqalardan qat’i nazar, teng, xolis munosabatni va hurmatni namoyish etish |
| | EE.2 | Insonparvarlik, empatiya, hamdardlik, sezgirlik va bemorlar va ulaming qonuniy vakillariga nisbatan halollik koTsatish |

| | | |
|---|---|---|
| ko‘rsatish amaliyoti | EE.3 | Mustaqillik, maxfiylik, adolat, tenglik va xabardor qilingan rozilikka oid axloqiy tamoyillarga sodiqlikni namoyish qilish |
| | EE.4 | Bemoming shaxsiy manfaatlaridan ustun boTgan ehtiyojlari va ehtiyojlari uchun mas’uliyat ko‘rsatish |
| **Shaxsiy rivojlanish (ShR)**<br><br>Tibbiy amaliyot uchun muhim bo‘lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur boTgan ko‘nikmalarni namoyon qilish | ShR.1 | Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o‘zining funksional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish |
| | ShR.2 | Qarorlami qabul qilishda hamkasblarda ishonch xissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish |
| | ShR.3 | Odob-axloq me’yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o‘z imiji ustida ishlash va nizoli holatlarni boshqara olish |
| **Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR)**<br><br>Uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga tarafdorlik va qobiliyatni namoyon etish | UKR.1 | Shaxsiy kompetentlik doirasida o‘z bilimi, klinik ko‘nikmalarini yangilab borish |
| | UKR.2 | Shaxsiy ehtiyojga ko‘ra malakasini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish uchun maqsad va strategiyalami ishlab chiqish |
| | UKR.3 | O‘z bilimi va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish |
| | UKR.4 | Bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun xalqaro ilmiy, dalillarga asoslangan bazani, ilmiy tadqiqot natijalarini topish, baholash va qoTlash |
| | UKR.5 | Axborot resurslarida ishlash, yangi bilimlami tahlil qilish va kasalliklami tashxislash, davolash va oldini olish protokollarini o‘z amaliyotiga joriy etish.<br>Dalillarga asoslangan texnologiyalar yoki xizmatlami tatbiq qilish |
| **Jamoat salomatligi (JS)**<br>Bemorlar va aholiga optimal xizmatni ta’minlash uchun zarur boTgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi va sogTiqni | JS.1 | SogTiqqa ta’sir qiluvchi omillami, shu jumladan tarkibiy va ijtimoiy determinantlami, aholi o‘rtasida kasalliklar, asoratlar va nogironlikning oldini olishni aniqlash va tegishli vazirlik va idoralami xabardor qilish |
| saqlashni tashkil etish to'g'risidagi bilimlarni namoyish etish | JS.2 | SogTiq muammolarini, xavf omillarini, davolash strate-giyasini va profilaktika choralarini aniqlash uchun epi-demiologiya va biotibbiyot statistikasi tamoyillarini bilish. Kasalliklar haqida maTumot berish, sogTom tur-mush tarzini targTb qilish |
| | JS.3. | SogTiqni saqlash tizimida bemorlarni parvarish qilishni muvofiqlashtirish uchun professional jamoada ishlash |
| | JS.4 | Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat koTsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli va jamoaviy yondashuvdan foydalangan holda klinik amaliyotni doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirok etish. |
| | JS.5 | Bemorlarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik choralarini ko‘rish |